

BOSHLANG'ICH VA YUQORI SINIF ONA TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mo'minova Feruza

Kasbi tuman 8-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqida uchraydigan ayrim kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun metodik tavsiyalar, nutq bo'yicha izlanishlar olib borgan olim va olimlarning ijodiy ishlari tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mashq, metodik tavsiyalar, nutq va tafakkur, nutq uslublari, parazit so'zlar, sheva so'zlari.

Abstract: This article discusses some shortcomings in the written and oral speech of primary and high school students, methodological recommendations for their elimination, and an analysis of the creative works of scientists and scholars who have conducted research on speech.

Keywords: exercise, methodological recommendations, speech and thinking, speech styles, parasitic words, dialect words.

O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish masalasi ona tili ta'limida asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada olimlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda va metodik qo'llanmalar chop etilmoqda. Nutq madaniyatini shakllantirishda bog'lanishli o'qishni samarali usullari haqida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev ona tili o'qitish metodikasi darsligida ona tili darslarida og'zaki nutqni o'stiishni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali o'rgatish haqida ma'lumot beradi. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva va K.Qosimovalar, 80-90-yillarida B.Turdiyev, A.G'ulomov, M.Qodirov, Sh. Yusupova, B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T.Ziyodovalar, 2000-yillar A.Hamroyev, Sh.Nurillayeva, kabi olimlar tomonidan aniqlangan. Bu metodistlarning ayrimlari adabiyot darslarida, ayrimlari ona tili va o'qish darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish masalasiga doir qimmatli metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Q. Abdullayeva 1 -sinfda nutq o'stirish metodik qo'llanmasida o'quvchilarning tovushlarni va so'zlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish va boshqa nutqiy mashqlar haqida fikr boradi. O'quv jarayonida nutq faoliyati mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik asoslari haqida ham o'zbek olimlarining ham izlanishlari mavjud. K.Qosimova "5-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash" qo'llanmasida lug'aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so'z yuritadi". A.G'ulomov, M.Qodirovning ona tili o'qitish metodikasi qo'llanmasida nutq o'stirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq o'stirishga doir mashqlarni tashkil etish bo'yicha metodik



tavsiyalar berilgan. M.Asqarova rahbarligidagi bir guruh olimlar kichik bola nutqini o‘stirish nomli o‘quv qo‘llanmasida asosan bog‘cha yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish masalalari o‘rganilgan. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalar yaratgan (o‘zbek tili) o‘qitish metodikasi qo‘llanmasida bo‘lg‘usi mutaxassislarni maktab ta‘limiga tayyorlashda grammatik mavzular bilan bog‘liq holda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish metodikasiga alohida ahamiyat qaratilgan, boshlang‘ich sinflar ona tili ta‘limida esa o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va tafakkurini rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan". Ta‘lim jarayonida nutq o‘stirish o‘qituvchi va o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalarini kuzatish va o‘stirishga qaratilgan shaxsiy hamkorlikdagi amaliy faoliyatdir. O‘quvchilar nutqini o‘stirish hamisha pedagogik rahbarlikni talab qiladi. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uni tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonga (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi obyekt sifatida ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. O‘qituvchining bunday metodik usullari faqat o‘qitayotgan faniga mehr uyg‘otibgina qolmasdan, o‘quvchilarning kommunikativ va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirib ularning turli xil til birliklaridan foydalanishga, o‘z nutqiga ongli munosabatda bo‘lishga, har bir so‘ziga ishonch hissini o‘rgatishga xizmat qilishi kerak. Ona tili o‘quv predmeti sifatida belgilangan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, inson umri uchun zarur bo‘ladigan til birliklarini amaliy qo‘llash ko‘rikmasini hosil qilishi kerak.

Nutqiy bilim bilan nutqiy ko‘nikmaning ikki xil hodisa ekanini farqlamoq kerak. Nutqiy bilim tilning barcha sathlariga doir bilimlarni o‘zlashtirish asosida egallanadi, nutqiy ko‘nikma esa nutqiy mexanizmni turli nutq uslublarida ishga solishdir. Inson nutqiy asosda so‘zga emas, balki ma‘no tomoniga e‘tibor garatadi va o‘z fikrini aniq ifodalash uchun kerakli so‘zni tanlaydi. Nutq muomalaga mos ravishda muayyan sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Birinchi navbatda, nutqning leksikasi keraksiz va mahalliv (shevaga xos so‘zlardan), parazit va vulgar (qo‘pol, noxush) so‘zlardan holi bo‘lishi zarur. Nutqning sifatiga qo‘yiladigan obrazlilik, emotsionallik kabi talablar ham bevosita nutqning leksik qatlamiga bog‘liqdir. O‘quvchilar o‘z fikrini to‘g‘ri va mukammal ifodalash ko‘nikmasini egallashlari uchun o‘qituvchi nutqiy xatolarni bartaraf etuvchi va nutqni lug‘aviy birliklar bilan bo‘yituvchi maxsus usullarni muntazam tashkil etishi kerak. Ona tili dasturining bo‘limlari Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish", "O‘qish va nutq o‘stirish", "Grammatika, imlo va nutq o‘stirish" deb nomlanishining o‘zi nutqqa doimiy e‘tiborni talab etishidan dalolat beradi. Nutq faoliyati uchun, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartlarga rioya qilish zarur:

Kishi nutqining chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish zaruriyatiga qarab nutq so‘zlay olishi. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi kerak. Bu material to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan o‘quvchilar nutqini o‘stirishning sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib,

o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli til vositalari bilan qurollantirish zarur. O'quvchilarga til na'munalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur .” Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda ilni sezish” shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatni keng tizimda yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish maqsadida quyidagi interfaol metodlar foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Kognitiv- eng avvalo, o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog lig bo'lgan uslubdir.

Eksperimental o'quvchilarning jonli", shaxsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan.

Rolli o'yinlar, modellashtirish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (uslub jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi).

Fasilitatsiya guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, topshiriqlar bilan bog'liq, aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama, faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish, haqiqiy, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan.

Xulosa qilib aytganda, yozma va og'zaki nutq kishi kundalik ehtiyojlari uchun asosiy omildir. Shuning uchun ham maktab darsliklarida nutqiy kompetensiyaning har bir bo'limiga alohida e'tabor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayev A.R Ona tili darslarida nutq o'stirish / 5-sinf materiali asosida/ metodik qo'llanma, - Toshkent 1998.
2. Sayfullayev A.R Ona tili darslarida nutq o'stirish / 6-sinf materiali asosida/ metodik qo'llanma, – Toshkent 1998.
3. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash asoslari. O'zbek tili doimiy anjumani ikkinchi yig'inining tezislari. - Qarshi: 1993.
4. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. O'zbek tili doimiy anjumani uchinchi yig'inining tezislari. – Jizzax: 1995.
5. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari. O'zbek tili doimiy anjumani to'rtinchi yig'inining tezislari. – Toshkent: 1997
6. Tekyyaeb A.B MeTOIHKa pyckopo A36IKa cpeHHÄ IIKoIe. 3-H31aHHe. «IIpocBHUCHHE» MockBa 1980.
7. Tilalova G. Ona tili mashg'ulotlarida modal so'zlar ustida ishlash. Ta'lim jarayonida soz bo'yiligini oshirishning asosiy omillari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 86-87 b.
8. Usmonova Sh. Psixolingvistika asoslari. Lingvistika bo'yicha ma'ruzalar kursi.